ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/№ 1,1

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.01.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:
Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova,(PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Nargis Kurbanazarova, (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Dilrabo Ergasheva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.01.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www.philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, (PhD), доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, (PhD), доцент (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, (PhD), доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, (PhD), доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Зайнура Кадирова, (PhD), доцент (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Дильрабо Эргашева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.01.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)
Dilrabo Ergashova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

AMINOVA DILNOZA
Brending va imij tushunchalarining nazariy tavsifi 7

QODIROV UMARJON AKRAMJON O‘G‘LI
Shonazar Shoabdurahmonov Qo‘qon shevasi xususiyatlari haqida 11

NAZAROVA ZIYODA KATTAYEVNA
Frazeologik birliklarni idiomalardan farqlashning muhim ahamiyati 14

QIYOMIDINOVA NILUFAR QAXRAMON QIZI
Ijtimoiy tarmoqlarning lingvistik dinamikasi:
evolyutsiya, o‘ziga xoslik va raqamli davr ta’siri 17

BO‘RONOV NAZIM MUSTAFAQULOVICH
Feyk yangiliklarga qarshi kurashishda milliy va xalqaro tajriba 22

MUSURMONQULOV ADHAM ABDURASHID O‘G‘LI
Tilshunoslikda uyadosh so‘zlar lug‘atini
yaratishning maydon nazariyasidagi talqini 27

SOBIROVA FERUZA ISLOMJON QIZI
Saylovoldi dasturlarda nutqiy manipulyatsiya.....30

XOLMATOVA GO‘ZAL BAXODIROVNA
Internet-media ergonimlarining struktur-semantik tahlili
(o‘zbek va ingliz tillarida) 35

ASHUROV BOBIR SHAKIROVICH
Sud-ekspertiza lingvistikasi: nazariy asos va metodologik talqin 38

ROZUMBETOVA XILOLA UMAR QIZI
To‘rtko‘l tumani oykonimlarining leksik-semantik tahlili.....42

TOJIBOYEV ILXOMJON USMONOVICH
Lingvomadaniyatshunoslik antropotsentrik paradigmaning
asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida 47

МУНДАРИЖА

ADABIYOTSHUNOSLIK

JEPBAROWA SAÝAT KURBANMIRATOWNA
Halk dessanlarynyň beýik şahyr Magtymguly pyragy
döredijiligine çeperçilik täsiri 49

KODIROVA SAODAT ABDIRAXIMOVNA
Badiiy asarlardagi maqollarning evolyutsiyasi
(“Zarbulmasal” asari misolida) 52

АБДУЛЛАЕВ МАХМУД АХМАТОВИЧ
Таджикское литературоведение о вкладе Садриддина Айни
в изучении узбекско-таджикских литературных связей 55

DUSIMBETOVA NARGIZA BAXTIYAROVNA
Bo‘lajak jurnalistlarning transmedia ko‘nikmalarini shakllantirish
va o‘rgatish jarayonining metodikasi 58

TA’LIM

МАМЕДОВА НАРГИЗА ЗИРАДДИНОВНА
Современные методы преподавания русского языка 58

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 1
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TO'RTKO'L TUMANI OYKONIMLARINING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

Rozumbetova Xilola Umar qizi,
Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti

Bugungi kunda "onomastika" sohasiga e'tibor yana-da kuchaymoqda. Bu sohaning bir bo'lagi bo'lgan toponimika (joy nomlarini o'rganadigan fan) ham rivojlanib, yillar davomida bir qancha tadqiqotlar, ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, O'zbekistonda H.Hasanov, S.Qorayev, P.G'ulomov, Q.Seytniyazov va lingvistik jihatdan o'rgangan E.Begmatov, Z.Do'simov, T.Nafasov, T.Ernazarov, N.Ulug'ov, N.Oxunov va boshqalar toponimika sohasi taraqqiyotiga o'zlarining katta hissalarini qo'shishgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi hududi toponimlari bo'yicha ham ko'pgina ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib, xalq an'analari, turmush tarzi, ma'naviy merosi, milliy qadriyatlari, etnik kelib chiqishi va madaniy boyliklari haqida ma'lumot beruvchi oykonimlarlarning leksik-semantik xususiyatlarini biz Qoraqalpog'istondagi To'rtko'l tumani oykonimlari misolida tahlil qilamiz.

Toponimlarning bir turi bo'lgan oykonimlar jamiyat tarixi va taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, (yunoncha oykos – turar joy, maskan + onoma – atoqli ot) aholi yashovchi joylar, maskanlarning atoqli oti.[1] Oykonimlar sirasiga ko'cha, daha, qishloq, (QFY-qishloq fuqarolar yig'ini), mahalla (MFY-mahalla fuqarolar yig'ini), ovul (OFY-ovul fuqarolar yig'ini) posyolka, shaharcha, shahar kabilar kiradi.[2] Oykonimlar insoniyat tarixida etnografik va etnolingvistik, milliy va madaniy, ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy va amaliy, ta'limiy va tarbiyaviy, shu jumladan, siyosiy hamda iqtisodiy jihatlardan qaraganda ham alohida ahamiyatga molik bo'lgan topoobyektlarning nomlaridir. Ular obyektlarni nomlash maqsadida tanlab olingan so'zlar bo'lgani bois onomastik leksika majmuidagi so'zlarning nomlilik xususiyati bilan tilshunoslik fanining o'rganilish manbasiga aylanadi.[3] Oykonimlarni tahlil qilishda, avvalo, ularning ma'noviy guruhlarini o'rganib chiqsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Oykonimlarni ma'noviy guruhlarga ajratishda ko'pgina tadqiqotchilar o'zlarining samarali ishlarini olib borishgan. Oykonimlarni S.Qorayev quyidagicha tasniflagan. 1) tabiiy yoki tabiiy geografik oykonimlar; 2) ijtimoiy-iqtisodiy oykonimlar.[4] I. Xolmuratov bo'lsa oykonimlarni kelib chiqishi va nomlanish xususiyatlariga ko'ra tasnifini quyidagicha keltirgan: 1) etnooykonim; 2) sotsooykonim; 3) antrooykonim; 4) fitooykonim; 5) ko'chma oykonim; 6) geooykonim; 7) professionalizmlar asosida yuzaga kelgan oykonim; 8) muqaddaslashtirilgan oykonimlar; 9) zoooykonim; 10) obyektlarning son (miqdor) belgisiga ko'ra yaratilgan oykonim; 11) neooykonim.[5] Shu jihatdan biz ushbu hudud oykonimlarini quyidagicha tasniflaдik:

1) Antrooykonimlar. Antropooykonim – lotincha: antropo – odam, oykos – joy demak. Kishi ismlari bilan atalgan joy nomlari antropooykonimlardir. Toponimiyada antropooykonimlarning salmog'i ko'p.[6] To'rtko'l tumanida ham bunday oykonimlar juda ham ko'p. Masalan: Beruniy (MFY), Navoiy (MFY), Jomiy, Forobiy, Mashrab (Navro'z MFYdagi ko'cha), Ulug'bek (Istiqlol MFYdagi ko'cha), Ibn Sino (MFY), U.Xayyom, A.O'tar, Nodirabegim, A.Qodiriy, Uyg'un (Do'stlik MFYdagi ko'chalar), Gagarin, A.Qahhor (Jayhun MFYdagi ko'chalar)

2) Etnooykonimlar. Toponimlarning vujudga kelishida aholining etnik tarkibi ma'lum hududda istiqomat qilgan turli xalq, qabila, urug'lar muhim rol o'ynagan. Jug'rofiy joylarning ko'pchiligi kishilarning ijtimoiy guruhiga qaysi qabila va urug', qavmga mansubligiga nisbatan nom ola boshlagan. Etnonimlardan yasalgan toponimlar – etnotoponimlar, odatda turli qabila, urug' vakillari qo'shni, aralash yashagan hududlarda etnonimlar farq etuvchi belgi vazifasini

[1] Begmatoov E., Uluqov N. O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati. – Namangan, 2006. – B. 58.
[2] Kilichev B. Onomastika. – Buxoro, 2023. – B. 85.
[3] Холмуратов И. Жанубий Қорақалпоғистон ойконимларининг талқини, таснифи, таҳлили. – Тошкент: Firdavs shoh, 2020. – Б. 6.
[4] Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. – B. 52.
[5] Холмуратов И. Жанубий Қорақалпоғистон ойконимларининг талқини, таснифи, таҳлили. – Тошкент: Firdavs shoh, 2020. – Б. 47.
[6] Kilichev B. Onomastika. – Buxoro, 2023. – B.87.

bajaruvchi joylarda yuzaga kelgan. Bunday nomlar o‘sha qabila, urug‘ vakillarining o‘zlari tomonidan berilmagan, balki qo‘shni ikki qabila kishilari tomonidan qo‘yilgan.[1] Etnooykonimlar ham qabila, urug‘ nomlaridan kelib chiqqan. Masalan: Nayman (Ko‘na To‘rtko‘l MFYdagi ko‘cha), Qozoqarna (Tozabog‘yop OFYdagi aholi punkti), Turkmanko‘l (MFY)

3) Fitooykonim. O‘simlik va daraxt nomlari bilan atalgan joy nomlari fitotoponimlar deb yuritiladi. Bu xil toponimlar ma’lum hududdagi o‘simliklar dunyosining muhim xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi. Fitooykonimlar mevali yoki mevasiz daraxtlar, o‘tlar, poliz ekinlarining nomlaridan kelib chiqishi mumkin.[2] Shunga ko‘ra: 1) mevali daraxt nomlari asosida yaratilgan oykonimlar: Olmazor (Turkmanko‘l MFYdagi ko‘cha), Giloszor (Shodlik MFYdagi ko‘cha), Anorzor (Ibn Sino MFYdagi ko‘cha), Jiydazor (Do‘stlik MFYdagi ko‘cha), Tutzor (Sho‘raxon OFYdagi ko‘cha) 2) mevasiz daraxt nomlari asosida vujudga kelgan oykonimlar: Chinor (Do‘stlik MFYdagi ko‘cha), Archazor (Yoshlik MFYdagi ko‘cha) 3) o‘t nomlari bilan atalgan oykonimlar: Atirgul, Gulzor (Do‘stlik MFYdagi ko‘chalar), Lolazor (Shodlik MFYdagi ko‘cha).

4) Zoooykonim. Ko‘pgina geografik nomlarda ma’lum hududning hayvonot dunyosi ham o‘z aksini topadi. Bu turdagi joy nomlarining vujudga kelishida hayvonlar, qushlar, parrandalar va boshqa jonivorlar nomlari asos bo‘ladi. Ular bizga suv obyektlarida, o‘rmon va cho‘llarda, dala-dashtlarda hayot kechiruvchi turli xil jonivorlar to‘g‘risida qimmatli ma’lumot beradi. Masalan: Tulpor (Istiqlol MFYdagi ko‘cha), Kabutar, Qaldirg‘och, Humo qushi (Do‘stlik MFYdagi ko‘chalar), Burgut (Anhorli MFYdagi ko‘cha).

5) Geooykonimlar. Yerning tuzilishi holatlari va gemorfologik xususiyatlari joy nomlarida o‘z ifodasini topgan. Mana shunday toponimlar, aniqrog‘i, oykonimlar geooykonimlar deyiladi. Ularning nomlanishi yerning tuzilishi, holati hamda xususiyatlari bilan bog‘liq holatlarda amalga oshiriladi.[3] Masalan: Qizilqum (Do‘stlik MFYdagi ko‘cha), Toshqal’a (Tozabog‘yop OFYdagi aholi punkti), Suvxonyop, Sohil, Taqir (O‘zbekiston OFYdagi ko‘cha).

6) Professionalizmlar asosida yuzaga kelgan oykonimlar. Kishilarning mehnat faoliyatini aks ettirgan oykonimlar hisoblanadi. Aholi maskanlari nomlanishida xalqning iqtisodiy turmush tarzi, shug‘ullanuvchi kasbi-kori, xo‘jalik faoliyati muhim omil bo‘lib hisoblanadi. O‘zbekistonning geografik nomlari tizimida kasb-hunar va mashg‘ulot nomlarini ifodalovchi toponimlar alohida o‘rinni egallaydi. Bu turdagi oykonimlar qadimiy kasb-hunarmandchilikning, savdo-sotiqning xarakteri, belgisini bildiradi.[4] Murabbiylar, Zargarlar, Miskarlar (Toshkent MFYdagi ko‘chalar), San’atkorlar (Turkiston MFYdagi ko‘cha), Baliqchilar (Turkiston MFYdagi ko‘cha), Quruvchilar (Shodlik MFYdagi ko‘cha), Shoirlar (Yakkatol MFYdagi ko‘cha), O‘qituvchi, Zargarlik (O‘zbekiston OFYdagi ko‘chalar), Hunarmand (Yoshlik MFYdagi ko‘cha).

7) Neooykonimlar. Mamlakatimiz tarixida bir necha tarixiy davrlar o’tgan. Neooykonimlar mana shu tarixiy davrlar mahsuli hisoblanadi. Ular biz yashab turgan tarixiy davrda yangidan tashkil topgan topoobyektlarga qo‘yilgan nomlar. Shu bilan birga mavjud toponimlar tizimidagi ba’zi bir toponimlarning tarixiy hamda sotsial taraqqiyotga mos kelmay qolishi tufayli mazkur topoobyektlar qayta nomlanishidan paydo bo‘lgan toponimlar, xususan, oykonimlarni o‘z nomlari bilan neotoponim yoxud neooykonim deyish o‘rinli.[5] Masalan: Yangibog‘ (Tozabog‘yop OFYdagi ko‘cha), G‘alaba (Toshkent MFYdagi ko‘cha), Istiqlol (Turkiston MFYdagi ko‘cha), Tinchlik (Jayhun MFYdagi ko‘cha), Nurli yo‘l (MFY), Yuksalish (Turkiston MFYdagi ko‘cha).

8) Sotsooykonimlar. Jamiyatga xos o‘zgarishlar sotsial o‘zgarishlar bo‘lgani kabi ular ta’sirida nomlangan toponimlar ham sotsotoponimlar deyiladi. Masalan: Xalq so‘zi (Tozabog‘yop OFYdagi ko‘cha), O‘zbek ovozi (Toshkent MFYdagi ko‘cha), Yakdillik (Turkisotn MFYdagi ko‘cha), Islohot (O‘zbekiston MFYdagi ko‘cha).

9) Muqaddaslashtirilgan oykonimlar. Ziyorat va qabriston nomlari ularning o‘zlariga nom bo‘lib qolmasdan, unga yondosh bo‘lgan aholi yashaydigan joylarning nomlariga ham aylangan. Bunday oykonimlar muqaddaslashtirilgan oykonimlar deb yuritiladi.[6] Masalan: Avliyo ota (Tozabog‘yop MFYdagi ko‘cha), Eshon bobo (Anhorli MFYdagi ko‘cha), Eshonlar (Bahor MFYdagi ko‘cha) Pari yor vali (To‘rtko‘l tumani, nekroantroponim), Ganjon bobo (O‘zbekiston OFYdagi ko‘cha).

Bundan tashqari, To‘rtko‘l tumani oykonimlarini

[1] Охунов Н. Ўзбекистон топонимияси. – Қўқон, 2005. – Б. 28.

[2] Охунов Н. Кўрсатилган адабиёт. – Б. 42.

[3] Холмуратов И. Жанубий Қорақалпоғистон ойконимларининг талқини, таснифи, таҳлили. – Тошкент: Firdavs shoh, 2020. – Б. 56.

4 Охунов Н. Ўзбекистон топонимияси. – Қўқон, 2005. – Б. 45.

[5] Холмуратов И. Жанубий Қорақалпоғистон ойконимларининг талқини, таснифи, таҳлили. – Тошкент: Firdavs shoh, 2020. – Б. 54-62.

[6] Холмуратов И. Жанубий Қорақалпоғистон ойконимларининг талқини ,таснифи, таҳлили. – Тошкент: Firdavs shoh, 2020. – Б. 58.

morfologik tahlil qiladigan bo‘lsak, juda katta guruh shakllanadi. Uni qisqacha qilib, toponimik asos+toponimik indikator, toponimik asos+toponimik formant+toponimik indikatordan tuzilgan oykonimlar shaklida tahlil qilsak o‘rinli bo‘ladi, chunki bu shakllar ushbu hududda juda ko‘p uchraydi. Undan avval ushbu terminlarni izohlasak, toponimik formant bu asosga qo‘shilgan qo‘shimchalar bo‘lsa, toponimik indikator toponimning turini aniqlab keluvchi so‘zlar. Masalan: G‘allakor ko‘chasi (Tinchlik MFYdagi ko‘cha) desak, G‘alla – toponimik asos + kor – toponimik formant + ko‘cha – toponimik indikator hisoblanadi. Toponimik asos+toponimik indikator shaklidagi oykonimlar: G‘alaba ko‘chasi, Oqqamish ovul fuqarolar yig‘ini (OFY), Taqir aholi punkti. Toponimik asos+toponimik formant+toponimik indikator shaklidagi oykonimlar: Paxtachi OFY, Tinchlik MFY, O‘zbekiston OFY, Shodlik MFY, Gulzor ko‘chasi, Ziyokor ko‘chasi, Zamondosh ko‘chasi kabilar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, oykonimlar o‘z-o‘zidan nomlanib qolmasligi, ularning nomlanishida tabiiy geografik holatlar, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, milliy qadriyatlar asos bo‘lib xizmat qilishini ta’kidlash joiz. Oykonimlarning nomlari aholining etnik kelib chiqishi, insonlarning shug‘ullanadigan ishlari, kasbi-kori, geografik o‘rni, hayvonot dunyosi, tabiiy sharoiti, jamiyatdagi sotsiologik o‘zgarishlarga ko‘ra qo‘yilishi mumkin. Biz Qoraqalpog‘iston hududidagi To‘rtko‘l tumani oykonimlarini leksik-semantik tahlil qilish orqali ushbu hududda oykonimlar ma’noviy jihatdan rango-rang ekanligi va ular orasida biz shu paytgacha bilmagan oykonimlar ham borligiga amin bo‘ldik.

Rezyume: Ushbu maqolada To‘rtko‘l tumani ayrim oykonimlari leksik-semantik, morfologik jihatdan tahlil qilingan. Ushbu hududdagi ayrim oykonimlar ma’noviy guruhlarga ajratilib, morfologik jihatdan oykonimik formant va oykonimik indikatordan tashkil topgan oykonimlar o‘rganilgan.

Resume: This article analyzes some oikonomia of the Turtkul district from a lexical-semantic and morphological point of view. Some oikonomia in this region are divided into semantic groups and morphologically, oikonomia consisting of an oikonomic formant and an oikonomic indicator are studied.

Резюме: В данной статье проведен лексико-семантический, морфологический анализ некоторых региональных названий Турткульского района. Некоторые ойконимы этого региона были разделены на духовные группы и изучены ойконимы, морфологически состоящие из ойконимического форманта и ойконимического показателя.